

ADI SHANKARCHARYA FALSAFIY MEROSIDA ADVAITA VEDANTA TA'LIMOTINING IFODALANISHI VA UNING VEDANTA TIZIMIDA TUTGAN O'RNI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-151-156>

Qorako'z To'lanboyeva Muxtorjon qizi

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Jasur Sulaymonov

PhD, dotsent, Sharq falsafasi va germenevtika kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Advaita Vedanta falsafiy maktabining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan faylasuf Adi Shankarcharya falsafiy faoliyati ko'rib chiqiladi hamda uning yozma merosida ifodalangan diniy-falsafiy jihatlar tahlil etiladi, Vedanta ta'limoti doirasida qiyosiy tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: hind falsafasi, Vedalar, Upanishad, Vedanta, Brahma Sutra, Bhagavad Gita, falsafiy sharhlar, Adi Shankarcharya, Advaita Vedanta, Atman, Brahman, Maya, illuziya, borliq, metafizika.

KIRISH

Vedanta ta'limoti qadimgi hind falsafiy tafakkuri rivojida eng yirik tizimlarni ishlab chiqqan yo'nalish bo'lib hind falsafasi tarixidagi g'oyaviy inqiloblar davriga to'g'ri keladi. Uning asosiy faoliyat nuqtasi Vedalarning falsafiy sharhi bo'lgan Upanishadlardagi asl mohiyatni tushuntirish va ularni bir tizimga solish hisoblangan. Bu jarayon Vedalar davridan boshlab mavjud bo'lgan harakatlardir, ammo Vedanta ta'limoti yuzaga kelishi tarqoq holdagi falsafiy fikrlarni yaxlit bir tizimga keltirish ehtiyojining mahsulidir. Buni biz bevosita yangi davr sifatida baholab, inqilobiy g'oyalarga tenglashtirishimiz mumkin.

Vedanta nafaqat Upanishadlardagi ta'limotlar, balki Vedalarning ham umumiy xulosasidir. “Vedānta” so'zma-so'z “Vedalarning oxiri” degan ma'noni anglatadi. Bu so'z asosan Upanisadlarni anglatardi, ammo keyinchalik uning ma'nosi Upanisadlardan kelib chiqqan barcha fikrlarni o'z ichiga oldi” [1, 395]. Bundan ko'rinadiki, ushbu ta'limot tadrijiy bosqichlarga asoslangan tarzda falsafiy maydonga kelgan tizimlar birlashmasidir.

Vedanta tarkibida uchta asosiy falsafiy maktab shakllangan bo'lib, Vedantin maktablar sifatida ham talqin etiladi. “Ular Adi Shankarcharya, Ramanuja hamda Madhya ismli faylasuflar nomi bilan bog'liq bo'lgan Advaita Vedanta, Vishtā-dvaita Vedanta va Dvaita Vedanta maktablaridir. Ushbu Vedanta maktablari tasniflanishiga ko'ra absolyutistik yoki teistik deb ifodalash mumkin” [2, 151]. Bizning asosiy muhokama mavzuyimiz Advaita Vedanta maktabining asoschisi hisoblangan Adi Shankarcharya va uning falsafiy qarashlari, falsafiy asarlarga yozgan sharhlariga qaratilgan bo'lib, ularning falsafiy ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

METODLAR

Mazkur maqolada Adi Shankaracharya falsafiy qarashlarida Advaita Vedanta ta’limotining mohiyatini ochib berish va uning Vedanta tizimidagi o’rnini aniqlash maqsadida bir qancha falsafiy metodlardan foydalaniladi. Tadqiqotda germevntik metoddan foydalanilib, Shankaracharyaning asosiy yozma manbalari – Upanishadlar sharhlari, Brahma Sutraga yozilgan “Bhashya” hamda Bhagavad Gitaga berilgan talqinlar o’rganildi va falsafiy jihatdan sharhlendi. Shuningdek, analitik metod yordamida Advaita Vedanta ta’limotining asosiy tushunchalari hisoblangan Brahman, Atman, Maya va moksha alohida tahlil qilinib, ularning o’zaro bog’liqligi ochib berildi, illuziya tushunchasi izohlandi. Tarixiy-falsafiy metod asosida Vedanta ta’limotining rivojlanish bosqichlari, xususan, Advaita yo’nalishining shakllanishi va tizimlashuvi jarayoni tahlil qilindi. Shu bilan birga qiyosiy metod yordamida Advaita Vedanta ta’limoti Vedantaning boshqa yo’nalishlari bilan solishtirildi hamda uning o’ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida Shankarcharya ishlab chiqqan Advaita Vedanta ta’limoti Vedanta tizimidagi mukammal va o’z tartibiga ega bo’lgan yo’nalish ekanligini ko’rish mumkin. U o’zining sharhlari orqali Vedantaning asosiy manbalarini falsafiy tahlil etish orqali an’anani davom ettirdi va falsafiy qarashlarni tizimlashtirdi. Shu bilan birga Advaita Vedanta markazida turuvchi no-dualizm g’oyasi – Brahman yagona va mutlaq haqiqat, Atman esa uning ifodasi ekanligi aniqlangan. Borliqning ontologik birligi konsepsiyasi mana shu ta’limotga asoslangan. Shankarcharya qarashlarida dunyoning nisbiy va illuziya xarakterga ega ekanligi Maya tushunchasi orqali ifodalanganligi ochib berildi. Moksha – ruhiy ozodlikka erishish g’oyasi jnana (bilim) bilan bog’langandir. Shuningdek, Advaita Vedanta Vedanta tizimidagi boshqa falsafiy yo’nalishlardan farqli ravishda monistik ruhda shakllanganligi uning chuqur metafizik asosini izohlaydi.

MUHOKAMA

Advaita Vedanta falsafiy maktabiga nisbatan darshana tushunchasi qo’llanilib, hayotga bo’lgan nuqtai nazar sifatida ifodalanadi. “Advaita Vedanta hind falsafasining eng yetakchi va eng mashhur maktabidir. Hind madaniyatida daršana so’zi G’arbning “falsafa” g’oyasiga mos keladi. Daršana so’zma-so’z ko’rish yoki idrok degan ma’noni anglatadi. Oltita daršana mavjud bo’lib, ularning har biri Haqiqatga o’ziga xos qarashni yoki tushunchani beradi” [4, 1]. Umuman olganda darshanalar deyilganda qadimgi hind falsafiy qarashlaridagi yuzaga kelgan maktablari nazarda tutilib, bu nom bilan ularning mohiyatini tushintirishda qo’llaniladi.

Advaita Vedanta ta’limotining asosiy tamoyillarini tahlil etishdan avval ikki jihatni e’tiborga olish talab etiladi. Bu Advaitaga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud ekanligi bilan bog’liq. Birinchisi tajriba sifatida Advaita bo’lsa, ikkinchisi falsafa sifatida Advaita, ular o’rtasidagi farqni alohida inobatga olish kerak. Chunki o’rganilish obyekt shu jihatga qarab o’zgaradi. “To’g’ridan-to’g’ri transsendental ruhiy tajriba sifatida Advaita inson erisha oladigan ruhiy anglashning eng yuqori nuqtasini belgilaydi. Ushbu avj nuqtasida shaxs va kosmik o’rtasidagi farq yo’qoladi

va biluvchi, ma’lum bo’lgan narsa va bilim o’rtasidagi farqlar g’oyib. Upanishadlarning asosiy mavzusi “tajriba sifatida Advaita” dir. “Falsafa sifatida Advaita” – bu shaxssiz Absolyutning fenomenal dunyo va individual “men” sifatida qanday paydo bo’lishini tushuntirishga harakat qiladigan kontseptual asos” [4, 2].

Shankarcharya tarafidan tadbiiq etilgan monizmning o’ziga xos shakli aslida juda qadimga borib taqaladi. U o’z davrida birlik (Advaita) tushunchasini takomillashtirish bilan birga alohida jihatlarni qo’shishga xizmat qildi. “Nazariy jihatdan uning eng ajralib turadigan xususiyati nirguṇa Brahmanni yakuniy haqiqat sifatida tasavvur qilish, Maya ta’limotiga yashirin ishonch, jiva va Brahmanning o’ziga xosligi va mokshani birinchisining ikkinchisida birlashishi sifatida tasavvur qilishdir; amaliy tomondan, bu karma-samnyāsa yoki to’liq voz kechishni targ’ib qilish, uning jñāna va jñāna faqat ozodlik vositasi ekanligi haqidagi iboradir. Ushbu ta’limotning eng qadimgi saqlanib qolgan formulasi Gaudapadaning Karikasida uchraydi” [3, 339]. Lekin Shankar Advaitaga oid bo’lgan ta’limotning o’ziga xos jihatlarini kashf etganligi bilan ko’proq narsani amalga oshirdi deyish mumkin. Uning falsafiy fikrlari sabab-oqibat tamoyiliga javob bermaydigan birliklarga asoslangan falsafiy qarashlarni ilgari suradi. Buni Oliy haqiqat tushunchasi bilan bog’lash mumkin.

Bhāratprapañca tomonidan talqin qilinuvchi Jñāna-karma-samuccaya – haqiqat va yaxshilikni yondosh holatda izlash ta’limoti Shankar davriga kelib yana-da kengroq xususiyatga ega bo’ldi. Bu tizimda Brahmanning mohiyatini Shankar sabab-oqibat tamoyiliga javob bermaydigan yagona birlik sifatida ko’radi.

Adi Shankarcharya o’zining vedantik g’oyalarni sayqallab, monistik xarakterga ega bo’lgan yondashuvni ilgari suradi. O’sha davr falsafiy tafakkur markazida Brahman, tabiat, ruh kabi metafizik tushunchalarining o’zaro munosabatga kirishishi yokida aloqadorlikda mavjud bo’lishi masalasiga nisbatan yakuniy yechim berish muammosi bo’lganligi uchun ham Vedanta o’zining ichida uchta yo’nalishni shakllantirdi. Shankar qadimgi diniy-falsafiy matnlarni izchil o’rganishi natijasida Advaita Vedanta maktabini yuzaga keltirdi. Undagi yondashuvlar ham metafizik, ham ontologik talablardan kelib chiqib izohlanadi. Ammo Shankar taklif qilgan Advaita – no-dualizm g’oyasi monizmga nisbat bo’la olmaydi degan munosabatlar ham bor. “Qat’iy ma’noda aytganda, bugungi kunda keng tarqalganidek, Adi Shankaracharya mutlaq birlikni (sof birlikni) tadbiiq qiladi, deb aytish noto’g’ridir. Agar u shunday qilganida, uning Absolyuti “mutlaq hech narsa” bo’lib qolgan bo’lardi. Ammo Vācaspati Mīśra ta’kidlaganidek, u ko’plikni inkor etadi, biroq birlikni ijobiy tarzda tasdiqlamaydi” [2, 154]. Bu kabi yondashuvlar faylasufning faoliyatidagi asosiy xususiyatlarni ko’proq ochib berishga xizmat qiladi. Negaki, tanqidiy munosabatlar g’oyalardagi fikr erkinligini ifodalaydi, natijada biz Shankarcharya qarashlarini obyektiv tarzda tahlil qila olamiz.

Shankarcharya o’z davrining mutafakkiri, yirik islohotchilaridan deb atash mumkin. Chunki u diniy-falsafiy ta’limotlardagi qadriyatlar mohiyatini tizimlashtirish uchun yozgan sharhlari, amalga oshirgan harakatlari tor doiraga bog’lanib qolmagan. Boshqacha qilib aytganda, Shankar o’z davrining ijtimoiy nizolariga qarshi kurashish bilan birga, insoniyat madaniyati tarixiga muhim ahamiyatga ega hissa qo’shishga

muvaffaq bo‘ldi. U o‘zi haqida Vedalarda mavjud bo‘lgan narsalarni izohlashdan boshqa narsa qilmaganligini ta’kidlasa-da, hind falsafasida yangi harakatning asoschisi edi.

Adi Shankaracharya yashab o‘tgan davri aniq saqlanib qolmagan. Manbalarda turlicha sanalar ifodalanib, yaxlit bir hisob berilmagan. “Odatda uning hayoti VIII asr oxiri va IX asr boshlariga (taxminan milodiy 788–820-yillar) to‘g‘ri keladi deb qaraladi va bu sana yuz yil doirasida to‘g‘ri deb hisoblanadi” [2, 155]. Yana bir tadqiqot ishida quyidagicha keltiriladi: “Adi Shankaracharya taxminan milodiy 788-yilda Hindistonning Kerala shtatidagi Kaladi qishlog‘ida, Purna (hozirgi Periyar) daryosi bo‘yida brahman oilasida tug‘ilgan. Uning ota-onasi – Shivaguru va Aryamba uzoq vaqt farzandsiz bo‘lgan va Shankaraning tug‘ilishi ular uchun katta quvonch bo‘lgan” [6, 40]. Umumiy tarzda mana shu yillar hisobini qabul qilish mumkin bo‘ladi. Rivoyatlarda aytilishicha, Shankar 32 yoshida vafot etadi. Uning bu qisqa umri davomida qilgan ishlarining ko‘lami umrining davomiyligi bilan emas, uni harakatlantirgan e’tiqodi orqali baholanadi. Shakar o‘zidan juda boy falsafiy meros qoldirgan. Uning har bir yozgan sharhlari Vedantaning uch asosiy ustuni hisoblangan Upanishadlar, Brahma Sutra, Bhagavad Gita hamda ularga aloqador bo‘lgan manbalarni qamrab oladi.

Faylasuf Vedanta falsafasini to‘liq tushunish uchun o‘sha davrning yirik ustozlari tarafidan yozilgan sharhlarni ham o‘rganib chiqadi. Bu uning o‘zidan avvalgi vakillarga hurmati ifodasi bo‘lish bilan birga, qadimgi hind an‘analarini to‘liq izohlay olish, falsafiy mohiyatini ochib berish uchun qilingan harakat edi. Shuningdek, ustozshogird an‘analariga alohida e’tibor qaratgan. “Adi Shankaracharya Brahma Sutrasni Badarayana ta’limotini sharhlash uchun o‘rganadi, ammo bu uning o‘z-o‘zicha maqsadi emas edi; balki u shu vosita orqali o‘zi tushungan Vedanta falsafasini bayon qilishni ko‘zlagan. Bu esa, uning nazarida, Upanishadlar falsafasining uyg‘un va tizimli butunlik sifatida talqin qilinishini anglatardi” [5, 1]. U Upanishadlarga yozgan asosiy sharhlarni Brahma Sutralar va Bhagavad Gita ga bag‘ishlangan sharhlardan avval shakllantirgan, sababi shundaki, faylasuf dastlab Upanishadlardagi mohiyatni chuqur qiyosiy va tanqidiy tahlil etish hamda bu haqda to‘liq tasavvur va ma’lumotga ega bo‘lishni maqsad qilgan. Bu vosita keyinchalik Brahma Sutralarni talqin etishda markaziy o‘rinni egalladi. Shankarning bu yondashuvi boshqa maktab vakillari, xususan, Ramanujadan farq qiladi. Ularning farqli jihati shundaki, Ramanuja Brahma Sutralarni so‘zma-so‘z talqin qilib, uning ahamiyatini Upanishadlardan mustaqil holda talqin etadi. Shankar esa Sutralarga sodiqligini saqlagan bo‘lishiga qaramay, Brahma Sutralarni Upanishadlarning qisqa va aniq ifoda etilish vositasi deb biladi. Ulardagi asosiy mohiyat Upanishadlardan kelib chiqqan. Shunga asosan, Sutralar mazmuni asl matnlardan kelib chiqqan holda sharh etilishi kerak degan yondashuvni bergan. “Uning asosiy asarlari – Prasthanatrayi (ya’ni Brahma Sutras, Bhagavad Gita va Upanishads sharhlari), Gaudapadiya Karika hamda mustaqil asari Upadesha Sahasri hisoblanadi. Bu asarlarning barchasi Advaita Vedanta g‘oyasiga asoslanadi” [6, 41]. Faylasufning ushbu xizmatlari yirik bir maktabni tizimli tarzda yuzaga kelishini ta’minladi.

Shankarcharya Vedanta tizimida mavjud bo‘lgan falsafiy muammolarga yondashar ekan, faqat metafizik jihat bilan cheklanmaydi. Tajriba asosida isbotlab berishni imkoni yo‘q birliklarni real holatda qanday xususiyat vositasida izohlab berish mumkinligi haqida fikr yuritgan va amaliy jarayonlar bilan bog‘lagan. “U o‘z falsafiy faoliyatini odatdagi faylasuflar kabi tajribani tahlil qilishdan boshlamaydi. Uning Adhyasa Bhashya asari – Brahma Sutraga yozilgan sharhining kirish qismi – mustaqil metafizik risola emas, balki Vedanta dalillarining asosiy mantiqiy nuqtasini ochib berishga qaratilgan” [5, 4]. Bu jarayonda faylasuf o‘rtaga bir qancha savollarni qo‘yadi: Mutlaq Haqiqatni qaysi mezon yoki me‘yorga ko‘ra qabul qilishimiz mumkin? Upanishadlarda keltirilgan mazmunni qanday kundalik tajribadan ustun qo‘ya olamiz?

Bu moddiy olamni izohlashda Shankarning illuziya tamoyili qolgan maktab vakillari qarashlaridan ajralib turadi. Uning fikricha, Brahman yagona haqiqiy mavjudlikdir. Undan tashqari bo‘lgan har qanday narsa norealdir. U mavjudlikning ilohiy asosi hisoblanadi. “Shankaraning asosiy maqsadi – barcha Vedanta matnlari yagona g‘oyaga, ya‘ni ātmaikatva – o‘zlikning birligiga olib kelishini ko‘rsatishdir. Bu esa mashhur “Tat tvam asi” (“Sen o‘sha”) formulasida ifodalanadi: individual jon (jiva) va mutlaq borliq (Brahman) aslida bir va ajralmasdir” [5, 5-6]. Bu Advaita Vedanta falsafasining asosini tashkil etadi. Eng yuqori ma‘rifat bu yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan Birlikni anglashdir.

XULOSA

Advaita Vedanta falsafasi hind falsafasi tarixidagi faol harakatlardan edi. Chunki uning ta‘siri natijasida ko‘plab diniy-falsafiy ta‘limotlar yuazaga keldi. Bu jarayonda an‘analarni, azaliy qadriyatlarni turli xurofotlardan holi shaklda tashkil etish harakatlari amalga oshirildi. Faylasuflar tomonidan falsafiy, diniy matnlarga yozilgan sharhlar Vedanta davrining asosiy bosqichlaridir. Qadimgi yozma manbalarni nazariy jihatlarini amaliy tarzda isbotini keltirish esa ko‘zda tutilgan muhim vazifa bo‘lgan. Aynan Shankarcharya falsafiy merosida ushbu jihatlar o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Uning falsafiy qarashlari keyingi davrlarda ham ta‘sir kuchiga ega bo‘lib, zamon bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanib bordi. Xususan, Neo-Vedanta diniy-falsafiy ta‘limotining paydo bo‘lish bosqichlarida katta ahamiyatga ega.

Shankarning amalga oshirgan sharhlarining ahamiyati Advaita Vedanta ta‘limotlarini mustahkamlaganligi bilan izohlanadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, Advaita Vedanta faqat Shankarning harakat va qarashlari bilan shakllangan falsafiy yo‘nalish emas, uning paydo bo‘lish bosqichlarida Gaudapada va Govinda Bhagavatpada kabi vakillarning ham hissalar bor. Ular tomonidan talqin etilgan siddhanta (ta‘limot tizimi) tamoyili aynan Vedik davr hamda Vedanta manbalarining sharhlariga bevosita bog‘liqdir. Shankarcharya bu an‘analarni davom ettirgan holda, mohiyatni ochib berishga harakat qilgan. Uning o‘zi hind falsafasiga yangi biror narsa olib kirganligini da‘vo qilmaydi, avval mavjud bo‘lgan falsafiy tafakkur asoslarini qayta talqin etganini ta‘kidlaydi. Ushbu yondashuv Sharq an‘analariga mos qadriyatlar hisoblanadi. Bu tadrijiylikka tayangan tizimlarning o‘sib borish tartibini ham ko‘rsatadi.

Shuningdek, Shankar muqaddas matnlarni sharhlashda ularni mutlaq va shartsiz qabul qilmaydi. Turli xil diniy marosim va unga bog‘liq bo‘lgan amallarni tashkil etuvchi bilimlarni tanqid qilgan. Bu tanqid bilimning mazmuniga qaratilgan. Sezgiga asoslangan bilimlar har doim ham yakuniy haqiqatni bera olmaydi deb ta’kidlagan. Ushbu nuqtai nazar Shankarning farqli jihatlarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chatterjee, S. C.; Datta, D. M. *An Introduction to Indian Philosophy*. – Calcutta: Calcutta University Press, 1948. – 516 p.
2. Hiriyanna, M. *The Essentials of Indian Philosophy*. – London: George Allen & Unwin Ltd., 1949. – 217 p.
3. Hiriyanna, M. *Outlines of Indian Philosophy*. – Delhi: Motilal Banarsidass Publishers Pvt. Ltd., 1993. – 425 p.
4. S. Four Basic Principles of Advaita Vedanta // *Prabuddha Bharata*. Jan/Feb 2010. P. 1-16.
5. Shyama Kumar Chattopadhyaya. *The Philosophy of Sankara’s Advaita Vedanta*. – New Delhi: Sarup & Sons, 2000. – 396 p.
6. Ranjan Kumar Mishra. *Advaita Vedanta Tatwa and Adi Sankaracharya // Pratidhwani: The Echo. A Peer-Reviewed International Journal of Humanities & Social Science*. – 2015. – Vol. IV, Issue II (October). – P. 40–44.